

## UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARIGA VOKAL IJROCHILIGINING O'ZIGA XOSLIKLARINI O'QITISH MASALALARI.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada imkoniyati cheklangan ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilariga vokal ijrochiligining o'ziga xos jihatlari, ijro uslublariga oid ko'nikmalar hamda vokal asoslari bilimlarini o'qitishni takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan.

**Tayanch so'zlar:** Vokal, xonanda, san'at, ovoz, ma'naviyat chashmasi, bastakor, ijrochilik amaliyoti.

Ijtimoiy hayotdagi ma'naviy turmushda yangi xususiyatlarning vujudga kelishi tufayli xalq orasida musiqiy ifoda vositalari jihatidan yangi musiqalar paydo bo'ldi. Yuqorida aytilganidek, yangi voqeylik mavzuida yangi muvaffaqiyatli vocal musiqalar yaratilgan. Akadem vokal asarlari va cholg'u pyesalarni ijod etgan bastakorlar o'zbek qo'shiqchiligi uslubining vujudga kelishiga va rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. XX-asrda O'zbekistonning musiqa sohasidagi aloqalari kengaydi. O'zbek cholg'u vokal dastasining 1923 yili Moskvadagi Butun Rossiya qishloq xo'jalik ko'rgazmasida uyushtirilgan birinchi chiqishi o'zbek dastalarining ijodining o'sayotganini, zamonaviy tus olayotganini, oddiy an'anaviy yangiliklar emas, balki tinglovchilar ommasiga ta'sir etadigan yangi ijtimoiy axloqiy-estetik asoslar chuqurlashayotganini ko'rsatdi. Unda Toshkentdagi 15 nafar va Xorazmdan 10 nafar musiqachilar hamda xonandalardan iborat dastalar ishtirok etdi. Ular ikki oy mobaynida 30 martadan ortiq konsert berdilar. Anchagina taniqli rus musiqachilari eng yaxshi o'zbekcha an'anaviy xonandalik va vocal asarlarini yozib oldilar. Xofiz M.Toshmuxammedov, naychi A.Ismoilov, surnaychilar va A.Yusupov tanburchi Xait oxun, dutorchi Dexqon oxun kabi O'zbekistonda shuxrat kozongan xonanda va sozandalarning san'atidan xayratlandilar<sup>1</sup>. Yopingich bilan ijro qilinadigan sevgi tugrisidagi ana shu uyin bor-qeub bir –necha dakika davom etdi. Lekin ana shu qisqa vaqtda butun bir opera yoki

---

<sup>1</sup> M. A. Kuznetsovaning V. Dyanchenko yozib olgan xotiralaridan

operettaga o'tgandek bo'ldi. O'yindagi juda ko'p va ixcham xarakatni katta syujetli tomoshaga aylantirish mumkin.

Vokal ijrochiligida o'qituvchi o'quvchilar ovozi tarbiyalashda vokal pedagogikasi uslublaridan keng foydalanishi lozim. Ashula aytishning o'ziga xos tomonlari bilan bog'liq o'z qiyinchiliklari ham yo'q emas. Xonandaning ovozi o'ziga xos "musiqqa asbobi" hisoblanadi<sup>2</sup>.

Shunga ko'ra mazkur vokal asarlari, ariyalar, lapar, sof badiiy afvzalliklarni, ajoyib qo'shiq va raqs ijrochiligi san'atini namoyish qilishdan tashqari, muhabbatning erkinligini ham ifodalaydi. Lapar ayniqsa yosh avlod uchun tarbiyaviy ahamiyatga molik edi. Chunki unda sevishgan baxtli yoshlar davlat qonunlari bilan himoya qilinishi tarannum etilgan edi. Mazkur "O'zbek davlat konsert-etnografiya truppasi" 20 yillar oxirida Moskva, Leningrad, Qozon, Ufa, Boku va boshqa shaharlarda chiqishlar qildi. 30 yillar boshida adabiy –badiiy tashkilotlarni qayta qurish bo'yicha belgilangan tadbirlar ijrochilik mahoratining yuksalishiga ta'sir ko'rsatganidek O'zbekiston musiqa xayotining o'sishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Vokal-texnik malakalari ko'nikmasini hosil qilish va rivojlantirish uchun amaliy mashg'ulotlardan keng foydalaniladi. Bunday mashqlar nafasni to'g'ri olishga, ovoz va nafas texnikasini rivojlantirishga, sof intonatsiyaga erishishga yordam beradi. Har bir o'quvchiga individual asar tanlangani kabi, mashqlarni ham o'quvchining musiqiy va eshitish qobiliyati, vokal tayyorgarligi, ovoz diapazonini hisobga olish muhim omillardan biri hisoblanadi. Yana bir tamoyil haqida eslatishimiz kerakki, zero ushbu tamoyil vokalpedagogik amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tamoyil – nafas olish texnikasidir. Vokal-pedagogik amaliyotida pastki qovurg'a – diafragmatik, ya'ni aralash nafas olish eng qulay sanaladi. Nafasning bu turida ko'krak qafasi va diafragma ishga faol kirishadi: nafas olish ularning bir paytdagi harakati bilan kechadi, bu to'liq nafas olish imkonini beradi. Nafas va ovoz to'qimalari o'zaro ta'siri tovush tayanchini belgilaydi. Boshqacha aytganda, xonandalik tayanchi – ovoz apparatining barcha qismlari (bo'g'iz, nafas a'zolari va ustki trubka) muvofiqlashgan natijasidir.

---

<sup>2</sup> <https://www.uz-science.uz/media>

1938 yilda O'zbek davlat filarmoniyasi tuzildi va bu voqea madaniyatni rivojlanishiga konsert hayotining yangi shakllari vujudga kelganining dalili bo'ldi. Shuning natijasida o'zbek va rus ijrochi kuchlar bitta markazda ijodiy birlashdi. Toshkentda tashkil topgan filarmoniya uning tarkibida salkam 100 nafar musiqachidan iborat katta xalq orkestrini tuzish imkonini berdi va unga T.Jalilov rahbarlik qildi. 1939 yilda qiziqarli bir tadbir tashkil etish imkoni tug'ildi. Toshkentda birinchi marta qayta ishlangan xalq cholg'u asboblari bilan rus bastakorlarining asarlari D.Shostakovichning Birinchi va beshinchi simfoniyalari, S. Prokofevning "Rameo va Juletta" baletidan birinchi syuita va vokal uchun yozgan birinchi konserti ijro etildi. Filarmoniya hayotida ro'y bergan keyingi voqealar rus va o'zbek musiqachilari, birgalikda 1938 yilda Shota Rustavelli tug'ilgan kunining 750 yilligi 1940yilda Petr Ilich Chaykovskiy tug'ilgan kunining 100 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan yubiley konsertlarini ijro etishlaridan iborat bo'ldi. 30-yillarda O'zbekistonning musiqa sohasidagi aloqalari kengaydi. Respublikamizga juda ko'p rus ijrochilar keldi. Tobora keng tinglovchilar doirasi mexnatkash o'zbek musiqasi bilan tanishdi. 1936 yilda Belorusiyaga gastrolga bordilar. 1937 yilda Moskvada O'zbek musiqasi bilan chiqishlar qildilar. O'zbek artistlari Londonda o'tkazilgan xalq raqslari bo'yicha Jahon festivalidagi konsertlarda ishtirok etishlari o'zbek xalqining musiqiy iste'dodini, uning musiqa madaniyati takomillashuvining xususiyatlarini o'z milliy san'atini uzluksiz rivojlantirishga faol kirganini chinakam namoish qildi.

Bastakor T.Jalilovning "Gulistonim mening", "Ey quyosh", "Vatan sevgisi" va boshqa shunga o'xshash qo'shiqlari, Yu.Rajabiyning "Koshkiy", "Soqinomay bayot", "Ne navo" va boshqa qo'shiq namunalari xalqimiz qalbida muhrlanib qolgan. Ular yaratgan qo'shiqlar bugungi hayotimizda hamroh bo'lishini, chin ma'noda da'vatkor, haqiqiy ma'naviyat chashmasi ekanligini o'quvchi-talabalar qalbiga singdira olish darkor.

Yakka, jo'rovozli, jamoaviy (ansambl) uslublari bevosita talqin bilan bog'liqdir. Yakka ijro xonandalik amaliyotida shaxsiy va akademik an'anaviy uslublarni o'z tarkibiga oladi. O'zbek mumtoz musiqa ijrochiligida shaxsiy uslublarni o'zining rang-barangligi, xususan, vocal musiqa ijrochiligi turliligi va ko'p sonliligi bilan ajralib

turadi. Ularning negizi vohaviy, janrli va mahalliy unsurlar bilan sugʻorilganligi bilan ham alohida ahamiyatlidir. Vokal musiqa ijrochiligi amaliyotida shaxsiy uslub yaratib nom qozongan xonandalar va oʻzbek xalq qoʻshiqchiligida ham mashhur hofizlarni ijod namunalarini keltirish joizdir. Ijrochilik amaliyotida shakllanib, maktab darajasida avlodlar tomonidan qabul qilinib, davom ettirilayotgan har bir uslub oʻzining muayyan ijroviy anʼanalari bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga yangi avlodning shakllanishi uchun ibratli saboq manbai sifatida xizmat qilishi begumon. Qolaversa, har bir vokal uslubida oʻzbek vokal xonandalik anʼanalarining oʻziga xos eng goʻzal jihatlari alohida bir tarzda shakllanganligini eʼtirof etish lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Nosirov Rahmatilla. «Ustoz – shogird». Vokal fanidan oʻquv - metodik qoʻllanma. (erkaklar ovozi uchun). Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti. Toshkent – 2010.

2. Яковлева А. Формирование верхнего участка диапазона мужских голосов. “Вопросы вокальной педагогики”. М., Музыка, 1984.

3. Raximov E. Vokal. Oʻquv - metodik qoʻllanma. Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti. Toshkent – 2010.

4. Mamikonyan T. “Osnovi vokalnoy metodiki” (teksti leksii) Tashkent – 2008.

5. <https://www.uz-science.uz/media>

6. <http://hozir.org>